

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

"KELISHILDI"

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar

bo'yicha prorektor:

 **R.E. Shukurov**

21 10 2025yil



13.00.02 - TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI
(SOHALAR BO'YICHA) IXTISOSLIGI BO'YICHA OLIY
TA'LIMDAN KEYINGI TA'LIM INSTITUTIGA KIRISH UCHUN
IXTISOSLIK FANIDAN

DASTUR

Denov |-2025

Kirish

Ushbu dastur "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi" fani predmeti, uning shakllanish tarixi, asosiy ilmiy yo'nalishlari, maqsadi va vazifalari, shuningdek, zamonaviy ta'lim jarayonini tashkil etishdagi nazariy va metodik asoslarini o'rganishga qaratilgan. Fan doirasida ta'lim va tarbiya jarayonining mohiyati, uning shaxs kamolotidagi o'imi, pedagogik faoliyatning ilmiy asoslari, metodologiyasi, pedagogik tadqiqot uslublari, ta'lim tizimidagi islohotlar, milliy va xalqaro tajriba, shuningdek, innovatsion texnologiyalarni qo'llash masalalari chuqur o'rganiladi.

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ijtimoiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etib, inson kapitalini shakllantirish, sog'lom turnush tarzini targ'ib qilish, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarini rivojlantirish hamda zamonaviy bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni egallagan barkamol avlodni voyaga yetkazish yo'lida ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur fan ta'lim tizimining barcha bo'lag'larida — maktabgacha ta'limdan boshlab, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'limgacha bo'lgan davrda — pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish uchun ilmiy yondashuv va metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va joriy etish imkonini beradi.

Shuningdek, ixtisoslik fanining nazariy va amaliy asoslari pedagogik jarayonni chuqur tahlil qilish, yangi pedagogik g'oyalar, konsepsiyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishda muhim rol o'ynaydi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari, milliy ta'lim dasturlari va innovatsion rivojlanish strategiyasi mazkur fandan chuqur nazariy bilimlar va metodik lo'nikmalarni talab etadi. Shu bois, ushbu dastur pedagogika fanining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ta'lim va tarbiya muammolarini hal etishga xizmat qiladi va oliy ta'limdan keyingi bosqichda izlanish olib boruvchi tadqiqotchilar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Metodika fan sifatida. Uning predmeti, maqsad va vazifalari. Pedagogik tadqiqot metodlari.

Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'imi, rivojlanish bosqichlari va ilmiy-nazariy, amaliy istiqbolni belgilash vazifalari. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari va tushunchalari tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), ma'lumot, bilim, ko'nikma va malakalar, rivojlanish.

Asosiy pedagogik jarayonlar va ularning bir butunligi, pedagogik jarayonlarni tadqiq qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Ilmiy pedagogik tadqiqotlarning nazariy va amaliy jihatlari.

Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari va ularning tavsifi. Nazariy tadqiqot metodlarining qiyosiy-tarixiy tahlili, qiyosiy taqqoslash, umumlashtirish, modellashtirish va boshqalar. Amaliy tadqiqot metodlari ilmiy kuzatish, suhbat, intervyu, so'rovnoma, test, reyting, statistik tahlil, hujjatlar tahlili, ilmiy tajriba, ilmiy tajriba sinovi (tabiiy, laboratoriya, amaliy va boshqalar). Tajriba – sinov ishlari va ularni kuzatish metodikasi.

Pedagogik fanlarni o'qitish metodlari tasnifi.

Ta'lim metodlarining tasnifi asosiy didaktik maqsadlar bo'yicha tizimlashtiriladi. Mualliflar tavsiya etilayotgan metodlarni quyidagi chizma bo'yicha qo'llash maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydilar:

Materialni og'zaki bayon qilish (hikoya, tushuntirish, maktab ma'ruzası). O'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish o'qituvchining tushuntirishini faol qabul qilish va puxta o'ylash evaziga amalga oshiriladi. Bilimlarni uzatish vositasi sifatida o'qituvchi nutqi muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda o'qituvchining o'quvchilar faoliyatiga rahbarligi mavzuni qo'yish, rejani e'lon qilish, o'quvchilar faoliyatini boshharishdan iborat bo'ladi.

Ta'lim jarayoni yagona tizim sifatida.

Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari. Ta'lim jarayoni mohiyati. Ta'lim jarayonining yagona tizim sifatidagi tasnifi. Ta'lim -borliqni bilishning o'ziga xos shakli sifatida. O'qitish va o'qish jarayonlari tavsifi, ularning ta'lim jarayonidagi o'zaro aloqasi. Sharq (al-Forobiy, Beruniy, Ibn Sino) va G'arb mutafakkirlarining gneseologik g'oyalari (qarashlari) ta'lim jarayonining asosi sifatida. Ta'lim jarayonida o'zaro aloqa va bolalarning rivojlanishi. O'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarining birligi. O'quvchi-yoshlarning o'quv faoliyati va ularning tuzilishi. Tarbiyalanuvchilarning reproduktiv va ijodiy bilish faoliyati. Bilimlarni o'zlashtirish, malaka va ko'nikmalar jarayoni hamda shaxsning rivojlanishi. Ta'lim jarayonini tashkil qilishda tarbiyachilar yo'l qo'yadigan xatolar va ularning oldini olish.

Ta'lim metodlari.

«Ta'lim metodi» atamasi, ta'lim metodining tarkibiy qismlari, fan metodlari, xususiy ilmiy metodlar, umumilmiy tadqiqot metodlari, ijtimoiy- gumanitar fanlar metodlari, «axborot», «model», «tuzilma», «funksiya», «tizim», «element», «oqilonalik», «ehtimollik» tushunchalarining mazmuni.

Darslik bilan ishlash.

Bilimlarni o'zlashtirish manbasi ekanligi, . O'qituvchining rahbarlikda topshiriqni ifodalash, faoliyat maqsadini belgilash, o'quvchilarga darslik bilan

ishlashning yangi usullarini o'rgatish, o'zlashtirilgan bilimlarning tushunilish va mustahkamlik darajasini tekshirish

O'qituvchining rahbarligi kuzatish vazifasini belgilash, uni ma'lum shaxs zimmasiga yuklash, ob'yektni belgilash, umumiy rahbarlikni olib borish, qismlarga ajratish, asosiylarini aniqlash va umumlashtirish.

Evristik ta'lim metodlari.

Evristik ta'lim metodini qo'llash usullar,. bilimlarni mustaqil egallash, . O'qituvchi tomonidan qo'yilgan masalani bir necha qarashlarga ajratilish, ularni

3

bajarishda o'quvchilarning ketma-ketlikka rioya etish, mazkur metod qisman izlanuvchan metod deb atalishi.

Muammoli ta'lim metodlari.

Muammoli ta'lim konsepsiyasining asosiy tushunchalari, «muammoli vaziyat», «muammo», «muammoni topish» kabilar hisoblanadi.

Mazkur metoddan foydalanish jarayonida muammo yechimini topishga yordam beruvchi yo'nalishlar ko'rsatilmaydi va chegaralanmaydi. Bu xususiyat muammoli masalaga xosdir. Muammoda yechimning qandaydir parametrlari ko'rsatilsa, u muammoli masala hisoblanadi. Har qanday muammoli topshiriq ma'lum muammoni, demak, muammoli vaziyatni ham qamrab oladi. Biroq, yuqorida ta'kidlanganidek, barcha muammoli vaziyat muammo bo'la olmaydi. Inson har doim muammoli masalalarni hal yetadi. Agar uning oldida muammo pay do bo'lsa, uni muammoli masalaga aylantiradi, ya'ni, uning yechimi uchun o'zidagi bilimlar tizimiga tayanadi va ma'lum ko'rsatishlarni belgilab oladi. Muvaqqiyatsizlikka uchragan taqdirda u boshqa ko'rsatkichlarni qidiradi va shu muammo bo'yicha yangi variantlardagi masalalarni o'ylaydi.

Tadqiqotchilik o'qitish metodlari.

Tadqiqotchilik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo'lgan masalani aniqlab oladi, o'quvchilar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni o'zla shtirib oladilar va uning yechimi bo'yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydi. O'ratilgan masalani yechish davomida o'quvchilar ilmiy bilish metodlarini o'zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko'nikmasi, tajribasini egallaydilar.

Ta'lim jarayonida tadqiqotchilik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi.

Ta'limni tashkil etish turlari va shakllari.

Ta'limni tashkil etishning asosiy shakllari. Ta'lim turlari: illyustrativ (an'anaviy); problemali (muammoli); programmalashtirilgana'Hm.

Ta'limni tashkil etish haqida tushuncha, uning xilma-xil turlari. Ta'lim maqsadi va o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quv ishlarining turli shakllari dan foydalanish. Ta'limni tashkil etishning an'anaviy shakli. Dars tiplari va tuzilishi. Hozirgi zamonda dars va darslami modernizatsiyalash yo'llari. Darsda o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil qilishning yalpi, guruhli va yakka tartibdagi shakllarini uyg'unlashtirish. Ta'limni tashkil etishning noan'anaviy shakllari; o'quv dialogi, munozara, didaktik (ishbop, rolli) o'yinlar, trening, press-konferensiya, o'tkir zehnlilar klubi, musobaqa darslari, auktsion, "mo'jizalar maydoni" va boshqalar.

Pedagogik texnologiyalar

"Pedagogik texnologiya", "metodika", "metodlar", "shakllar" va "vositalar" tushunchalari. Pedagogik texnologiyalarning mezonlari.

Pedagogik texnologiyalarning tuzilishi. "Pedagogik texnologiya"ning mohiyati va unga qo'yilgan talablar. Metodika va texnologiya. Ta'lim metodlari va ularning tasnifi. Pedagogik texnologiyalarni turlarga ajratish muammolari. Pedagogik texnologiya tushunchasi. Zamonaviy texnologik modellar bilan shartlangan ta'lim tuzilishining metodologik prinsiplari.

Pedagogik mahorat asoslari

Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni va ahamiyati. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalari. O'qituvchi atamasi, uning shaxsi hamda faoliyati haqida tushuncha. O'qituvchilik kasbining ijtimoiy-tarixiy rivoji va mazkur kasbning jamiyatda tutgan o'rni. O'qituvchi faoliyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy ahamiyati. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni hamda asosida o'qituvchi faoliyati mazmuniga qo'yiladigan talablar.

O'qituvchilik faoliyatining tizimi, kasbiy mahorati haqida tushuncha. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari va ularning mohiyati. O'qituvchi faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Pedagogik bilimlar. Pedagogik zakovat. Pedagogik qobiliyat. Pedagogik texnika.

Pedagogik muloqot

Muloqot - pedagogik hamkorlik vositasi sifatida. Muloqotning mohiyati va tuzilishi. Muloqot vositalari va turlari.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda o'qituvchilar va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi muloqotning o'ziga xos tabiati. Pedagogik o'zaro munosabatlar mohiyati.

Pedagogik muloqot uslubi va uning tuzilishi. Pedagogik muloqot uslublarining tasnifi va xususiyatlari.

Pedagogik nizolar, ulami bartaraf etish usullari. Pedagogik jarayondagi nizolaming mohiyati va ulaming kechish davrlari. Pedagogik jarayondagi nizolaming turlari va ulami bartaraf etish yo'llari

0'quv-tarbiyaviy vaziyatlarni loyihalashtirish asoslari

Tarbiyaning mazmuni va asosiy yo'nalishlari. 0'quv-tarbiyaviy vaziyat tushunchasi. 0'quv-tarbiyaviy vaziyatlamning turlari va ulami tashkil qilish shakllari. 0'quv-tarbiyaviy vaziyatlamning vujudga kelish va namoyon bo'lish shakllari. Muvaffaqiyat vaziyatlarini modellashtirish. 0'quv-tarbiyaviy vaziyatlar tahlilining mazmuni.

Oila - shaxs tarbiyasi va kamolotining sub'yekti sifatida. Oila - shaxs tarbiyasi va kamolotining ijtimoiy-madaniy muhiti. Oilaviy hayot sohasi tarbiya muhiti sifatida. Oiladagi tarbiyaviy vazifalar.

0'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini kamol toptirishning psixologik-pedagogik asoslari. Pedagogikada o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini kamol toptirish muammolari. 0'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashga imkon beradigan omillar. 0'z-o'zini tarbiyalash metodlari. 0'quv faoliyatni tashkil qilish shakllari

Ta'lim mazmuni (didaktika) haqida tushuncha. Ta'lim jarayoni: o'qitish va o'qish. Ma'rifiy jarayonlar sub'yektlarining muloqot shakli sifatida ta'lim jarayonining mohiyati. Ta'lim shakllari, ularning xususiyatlari, belgilari va funksiyalari.

Matnlar bilan ishlash asoslari. Matnning tuzilishi va uning tahlili. Ta'lim oluvchilar yozma ishlarining turlari. 0'quvchilar faolligiga aqliy yuklamalarning ta'siri. Kompyuterdan foydalanib, aqliy mehnatni tashkil etish xususiyatlari.

Pedagogik nazorat va ta'lim sifatini baholash

Ta'lim sifati tushunchasi. Sifat tushunchasining turlicha talqini. Ta'lim sifatini turlicha tushunish. Ta'lim sifati ma'rifiy (ta'limiy, tarbiyaviy) faoliyatni baholash va nazorat qilish muammosi sifatida.

0'quvchilar bilimini nazorat qilish ta'lim sifatini baholashning asosiy unsuri sifatida. Pedagogik nazorat va o'quvchilar o'zlashtirishini baholash xususiyatlari.

0'quv bahosi va belgidagi farqlar. Baho, belgi va ball o'rnatidagi farqlar. Baholash, uning funksiyalari va turlari. Noxolis pedagogik baholash sabablari.

Ta'lim sifatini nazorat qilishning mazmuni, shakllari, metodlari va turlari (joriy, oraliq, yakuniy). O'zlashtirishni nazorat qilish prinsiplari. O'zlashtirishni tekshirish bosqichlari. Pedagogik jarayonda bilimlarni nazorat qilish funksiyalari va shakllari. 0'quvchilar bilimini nazorat qilish metodlari.

Ma'rifiy tizimlarni boshqarish

Ma'rifiy tizimlarini boshqarish haqida tushuncha. O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi. Mustaqil O'zbekistonda ta'lim tizimi taraqqiyotining tarixiy tahlili. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida ta'lim tizimini boshqarish masalalari. Uzlaksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi. Ta'limni boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasi. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta'lim sohasidagi vakolatlari. Ta'lim muassasalarini boshqarish masalalari. Ta'lim turlari bo'yicha ta'lim muassasalarini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari. Ta'lim muassasalari attestatsiyasi va akkreditatsiyasi. O'zbekistonda ta'lim taraqqiyoti muammolari va istiqbollari.

13.0. 02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) bo'yicha oliy tal'limdan keyingi ta'lim insitutitiga kirish imtihoni savollari

1. Bilimlar - ta'lim mazmunining asosiy tarkibiy qismi.
2. Dunyoqarash va uning mohiyati.
3. Bilim va diniy e'tiqodning o'zaro munosabati.
4. Pedagogik layoqat.
5. Akmeologiya va uning mohiyati.
6. Mutaxassisning pedagogik fazilatlari.
7. Qadriyatlar va ma'rifiy qadriyatlar.
8. O'zbek pedagogikasida ma'rifiy qadriyatlar.
9. Ma'rifat va uning mohiyati.
10. Ma'rifat va madaniyatning o'zaro bog'liqligi.
11. Jahonda ma'rifiy fikrlar taraqqiyotining tarixiy-pedagogik tahlili.
12. O'zbekiston hududida eng qadimgi davrdan XIV asrgacha ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti.
13. XIV-XVI asrlarda maktab va ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti.
14. XVII-XX asr boshlarida maktab va ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti.
15. O'zbekistonda 1917-1990 yillarda maorif va ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti.
16. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'lim-tarbiya (ayrim mamlakatlar misolida).
17. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari va tushunchalari.
18. Pedagogikaning metodlari.
19. Pedagogikaning tarmoqlari.
20. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi.
21. Pedagogik tizimlar.

22. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar va ularning tavsifi.
23. Ta'lim nazariyalari va ularning turlari.
24. Aqliy hatti-harakatlar va tushunchalarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi.
25. Muammoli ta'lim nazariyasi.
26. Rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi.
27. Dasturlashtirilgan ta'lim nazariyasi.
28. Matnga asoslangan ta'lim nazariyasi.
29. Bilishning bixevioristik nazariyasi.
30. O'zlashtirishning geshtalt nazariyasi.
31. Ta'limning suggestopedik konsepsiyasi.
32. Neyrolingvistik dasturlash asosidagi ta'lim nazariyasi.
33. Pedagogik antropologiya va uning asosiy qoidalari.
34. Pedagogik texnologiyalar va ularning mohiyati.
35. Pedagogik texnologiyalarning tuzilishi.
36. Metodika va texnologiya.
37. Ta'lim metodlari va ularning tasnifi.
38. Ta'lim vositalari.
39. Ta'lim shakllari.
40. Muammoli ta'lim texnologiyalari.
41. Muloqotli ta'lim texnologiyalari.
42. Modellashtirish texnologiyalari.
43. O'yinli texnologiyalar.
44. Pedagogik muloqot.
45. Pedagogik nizolar, ularni bartaraf etish usullari.
46. Zamonaviy o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar.
47. Pedagogik faoliyat funksiyalari va pedagog shaxsiga qo'yilgan talablar.
48. Pedagogik mahoratning mohiyati va tuzilishi.
49. Pedagog fazilatlarining ijtimoiy va kasbiy shartlanganligi.
50. Pedagogik faoliyatdagi ijodiyot va innovatsiya.
51. O'quv-tarbiyaviy vaziyat tushunchasi.
52. Oila-pedagogik o'zaro munosabatlar, shaxs tarbiyasi va kamolotining sub'yekti.
53. Oiladagi tarbiyaviy vazifalar.
54. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini kamol toptirish.
55. Ta'lim jarayoni: o'qitish va o'qish.
56. Ta'limda audio vizual va kompyuter vositalari.
57. Ta'limda innovatsion jarayonlar.
58. Ta'limda "sub'yekt-sub'yekt" munosabatlarini amalga oshirish

- muammolari. Ta'lim va o'quvchilar o'quv imkoniyatlarining o'zaro mutanosibligi.
59. Ta'limni va mustaqil ta'limni amalga oshirish muammolari.
60. Ta'limning ikki tomonlama va shaxsga yo'naltirilgan harakatlari. O'qitish va o'qish jarayonining yagonaligi.
61. Ta'limning marifiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalari. Ta'lim jarayonining tuzilishi maqsadlari natijalari.
62. Ta'limning og'zaki metodlari, o'qitishning induktiv va deduktiv metodlari.
63. Ta'limning psixologik qonuniyatlari va amalga oshirish mexanizmlari.
64. Ta'limning turli: frontal, jamoaviy, guruhli, individual shakllarining o'ziga xos xususiyatlari va o'zaro aloqadorligi.
65. Matnlar bilan ishlash usullari.
66. Ta'lim sifati.
67. O'quvchilar bilimini nazorat qilish - ta'lim sifatini baholashning asosiy unsuri.
68. Pedagogik nazorat va o'quvchilar o'zlashtirishini baholash xususiyatlari.
69. Baholash, uning funksiyalari va turlari.
70. Ta'lim sifatini nazorat qilishning mazmuni, shakllari, metodlari va turlari.
71. O'zlashtirishni nazorat qilish prinsiplari va metodlari.
72. Mukofotlash va jazolash - rag'batlantirish metodi sifatida.
73. Test usuli, uning yutuqlari va kamchiliklari.
74. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini boshqarish.
75. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida ta'lim tizimini boshqarish haqida.
76. Ta'lim tizimini boshqarish organlarining vakolatlari.
77. Ta'lim muassasasini boshqarish.
78. Ta'lim muassasalari attestatsiyasi va akkreditatsiyasi.
79. O'zbekistonda ta'limning rivojlanish istiqbollari.
80. Uzlaksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi.

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2023. - 80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. 2020. <https://lex.uz>
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan

birga quramiz. Toshkent: "O'zbekiston", 2017.

4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: "O'zbekiston", 2016.
5. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta'lim sohasi bakalavriat yo'nalishi uchun darslik // Prof.M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. - Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010..
6. Pedagogika. O'quv qohlanma // A.Munavvarovning umumiy tahriri ostida. - Toshkent, <<O'qituvchi>>, 1996.
- Ziyomammedov B. Ma'rifat asoslari. - Toshkent, «Chinor ENK», 1998.
- 7..Mavlonova R va boshq. Pedagogika. - Toshkent, <<O'qituvchi>>, 2001.
- 8.Ismailova Z. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar - Toshkent, «Fan», - 2001.
- 9.Obyaya pedagogika. Pod red. V.A.Slastenina. V 2 ch. - Moskva, «Vlados», 2003.
- 10.O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 1 jild // Tuzuvchi-mualliflar: K.Hoshimov, S.Ochil - T.: «O'qituvchi», 1995.; 2 jild // Tuzuvchi-mualliflar: S.Ochil, K.Elshimov. - T.: «O'qituvchi», 1999.
- 11 J.Xasanboyev, X.To'rakulov, M.Xaydarov, O.Xasanboyeva, N.Usmonov. Pedagogika fanidan izohli lug'at. -T.: "Fan va texnologiya", 2009.
12. Подласый И.П. Педагогика 1-2 т. -М.: Владос, 1999.
- 13.Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.: Moliya, 2003. 26. O'zbek pedagogikasi antalogiyasi 1-2 t. (tuzuvchilar K.Hoshimov, S.Ochil. O'qituvchi, 1995-2000).
14. Farberman B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. -T.: Fan, 2000.
15. Xasanboev J.Y. va boshqalar. Pedagogika. O'quv qo'llanma. T., "Fan" 2006.

Elektron ta'lim resurslari:

1. [www. ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)
2. www.tdpu.uz

3. www.pedagog.uz
4. www.psychology.uz
5. www.mutQ.inta.uz

/ Fakultet dekani:

R.V.Salomova

Kafedra mudiri:

D.M.Boboqulova

